



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH
VA ISTE’MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASI**

000169

BUYRUQ

Toshkent shahri

20 23 yil “ 19 ” may

60-ICH -son

**O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va
iste’molchilar huquqlarini
himoya qilish qo‘mitasi markaziy
apparati, hududiy organlari va
tizimdagi tashkilotlarida
korrupsiyaga qarshi kurashish va
uni oldini olish bo‘yicha Dasturni
tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi markaziy apparati, hududiy organlari va tizimdagi tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita tizimida) korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish maqsadida, **buyuraman:**

1. Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo‘yicha Dastur ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishda ushbu Dasturga qat’iy rioya etilsin.
3. Devonxona (Ikramova) mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparati, hududiy organlari va tizimdagi tashkilotlarga yuborilishini ta’minlasin.
4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Rais

Sh. Sharaxmetov

O'zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya
qilish qo'mitasining 2023-yil
19-maydagi 60-ICH-son buyrug'iga
Ilova

**O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tizimida
korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha**

D A S T U R I

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochi
1.	Qo'mita va uning hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatida korrupsiya keltirib chiqarish xatarlari mavjud bo'lgan sohalarni aniqlash maqsadida fuqarolardan Qo'mitaning sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifasida e'tirozlar kelgan taqdirda ushbu e'tirozlarni tahlil qilib, uning omillarini bartaraf etishga qaratilgan "yo'l xaritalarini" ishlab chiqish.	doimiy	Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi
2.	Bo'sh ish (vakant) o'rinlarni ichki tartib qoidalarga ko'ra hamda "vacancy.argsos.uz" portali orqali tanlov asosida to'ldirish va lavozimga tayinlash.	doimiy	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi
3.	Qo'mita va uning quyi tizimi tashkilotlarida ishlayotgan xodimlarni joy-joyiga qo'yish bo'yicha masalalarni qayta ko'rib chiqish. Bunda uzoq vaqt davomida bitta lavozimda ishlab kelayotgan xodimlarni rotatsiya qilish amaliyotini qo'llash bo'yicha takliflar tayyorlash.	2023-yil noyabr	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochi
4.	<p>Qo'mita va uning quyi tizimi tashkilotlari xodimlarining ijtimoiy ahvolini o'rganib borish tizimini joriy etish. Bunda kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan va ko'p bolali xodimlar ro'yxatini shakllantirish va ularning holidan xabar olib turish hamda zaruriyatga ko'ra, moddiy jihatdan ta'minlash choralarini ko'rib borish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p>	doimiy	<p>Qo'mitaning Kasaba uyushmasi raisi Moliya-iqtisod bo'limi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi</p>
5.	<p>Davlat xaridlari bo'yicha axborotning oshkorligi va erkinligini oshirish maqsadida davlat xaridlari to'g'risidagi barcha axborotlarni tahlil qilishni hamda barcha manfaatdor shaxslarga undan foydalanishni ta'minlaydigan yagona ma'lumotlar bazasini tashkil qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p>	2023-yil oktabr	<p>Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirish va kartel kelishuvlariga qarshi kurashish boshqarmasi</p>
6.	<p>Qo'mita va tizim tashkilotlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni (davlat xaridlari bilan bog'liq shartnomalar ro'yxatini) Qo'mita hamda tizim tashkilotlaridagi veb-saytlarida e'lon qilib borish.</p>	Har chorakda	<p>Jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish bo'limi</p>
7.	<p>Davlat xaridlarida "komplayens-nazorat" tizimini takomillashtirish.</p>	doimiy	<p>Ma'muriy ho'jalik bo'limi, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi</p>
8.	<p>Qo'mita va uning hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan vakolat doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yish to'g'risida takliflar tayyorlash.</p>	2023-yil dekabr	<p>Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochi
9.	<p>Qo'mita tizimida korrupsiyaga nisbatan muhosabatni shakllantirishga qaratilgan, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va tarqatish.</p>	2023-yil sentabr	Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi
10.	<p>Qo'mita tizimi xodimlariga korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illat ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan o'quv materiallari tayyorlash va tarqatish.</p>	2023-yil avgust	Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi
11.	<p>Qo'mita tizimida "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" tadbirlarini tashkil qilish.</p>	2023-yil dekabr	Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi
12.	<p>Qo'mitaning veb-saytida xodimlar ustidan shikoyat qilish imkonini beruvchi maxsus sahifa orqali kelib tushgan shikoyatlarni muntazam tahlil qilish va natijalari bo'yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlash mexanizmini yo'lga qo'yish.</p>	2023-yil sentabr	Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi
13.	<p>Qo'mita va uning hududiy boshqarmalari ma'muriy binolarida jismoniy va yuridik shaxslar yoki ularning vakillarini qabul qilishda video va audioga yozib olish tizimini joriy etish.</p>	2023-yil avgust	Axborot tahlil va ijro intizomi boshqarmasi

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochi
14.	<p>Murojaatchilarga Qo'mita va uning quyi tizimi xodimlari tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqilishi sifatini baholash tizimini joriy etish.</p>	2023-yil sentabr	Axborot tahlil va ijro intizomi boshqarmasi
15.	<p>Hududiy boshqarma xodimlari bilan yilida kamida bir marta Qo'mita tomonidan profilaktik suhbat o'tkazish tartibini joriy etish.</p>	doimiy	<p>Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi</p>
16.	<p>Qo'mitada axborot texnologiyalari sohasida axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha axborot xavfsizligi Siyosatini ishlab chiqish.</p>	2023-yil avgust	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi